

96.HC - son bilan ro'yxatga olingan

“TASDIQLANGAN”

**“O‘zbekiston ipotekani qayta
moliyalashtirish kompaniyasi”
aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashining
2026-yil 17-fevraldagi 2-sonli
majlisi qarori bilan**

**“O‘ZBEKISTON IPOTEKANI QAYTA MOLIYALASHTIRISH KOMPANIYASI” AJ
KUZATUV KENGASHI QOSHIDAGI RISKLARNI BOSHQARISH QO‘MITASI
NIZOMI**

Toshkent - 2026

MUNDARIJA

I. Umumiy qoidalar	3
II. Risklarni boshqarish qo'mitasining maqsad va vazifalari	4
III. Risklarni boshqarish qo'mitasining tarkibi va a'zolarini saylash tartibi	4
IV. Risklarni boshqarish qo'mitasi a'zolarining muddati va ularni tugatish tartibi ...	5
V. Risklarni boshqarish qo'mitasi raisining vazifalari	5
VI. Risklarni boshqarish qo'mitasi a'zolarining huquq va majburiyatlari	5
VII. Risklarni boshqarish qo'mitasi majlislarini tashkil etish va o'tkazish tartibi.....	6
VIII. Hisobdorlik	7
IX. Yakuniy qoidalar	8

“O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda — Kompaniya) Kuzatuv kengashi qoshidagi Risklarni boshqarish qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda — RBQ) to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda — Nizom) O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020-yil 10-fevraldagi 3219-sonli “Ipoteka qayta moliyalashtirish tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish to‘g‘risida”gi Nizomi, Kompaniya Ustavi, 2015-yil 31-dekabrda Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha Komissiya yig‘ilishi bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi (9-son), shuningdek Bazel qo‘mitasi tomonidan tavsiya etilgan korporativ boshqaruv va ichki nazorat tizimini shakllantirish bo‘yicha xalqaro standartlar talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

I. Umumiy qoidalar

1. RBQ Kompaniyaning Kuzatuv kengashi qaroriga muvofiq Kuzatuv kengashi huzurida maslahat beruvchi va muhokama qiluvchi organ sifatida tashkil etilib, quyidagi maqsadlarni amalga oshirish uchun faoliyat yuritadi:

Kompaniyaning risk appetiti va riskka bardoshlik darajasini nazorat qilish;

risklarni boshqarish va kamaytirish ustidan nazoratni amalga oshirish;

Kompaniyaning prudensial me‘yorlari va limitlariga rioya etilishini Kompaniya tomonidan taqdim qilgan ma‘lumotlar asosida nazorat qilish;

Kompaniyaning kapital yetarliligi va likvidlikni boshqarish rejalarini nazorat qilish;

Kuzatuv kengashiga risk boshqaruvi strategiyasi, risk appetiti, risk bardoshlilik va kapital yetarliligi bo‘yicha tavsiyalar kiritish.

2. RBQ ushbu Nizomda belgilangan vakolatlar doirasida faoliyat yuritadi, hamda Kompaniyaning Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarni (ko‘rsatmalar) o‘zining vakolati doirasida amalga oshiradi.

3. RBQ o‘z faoliyatini amaldagi qonunchilik, Kompaniya Ustavi hamda ushbu Nizom talablari asosida amalga oshiradi.

4. Ushbu Nizom maqsadlari uchun atamalar quyidagi ma‘nolarda qo‘llaniladi:

IMT – Ishtirokchi moliyaviy tashkilot (Kompaniyaning ichki tartib-qoidalariga muvofiq onboarding jarayonidan o‘tgan va Kompaniya bilan qayta moliyalashtirish bo‘yicha bosh kelishuvni imzolagan bank).

Kuzatuv kengashi – aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan saylanadigan, qonunchilik va Kompaniya Ustavida belgilangan doirada Kompaniya faoliyati ustidan umumiy nazoratni amalga oshiruvchi boshqaruv organi.

Risk appetiti – Kompaniyaning strategik maqsadlari va biznes-rejalariga erishish uchun qabul qilishga tayyor bo‘lgan barcha muhim risklar hajmi (yig‘ma holda hamda har bir risk turi bo‘yicha alohida).

Risk profili – ma‘lum bir sanaga Kompaniyada mavjud bo‘lgan muhim risklar hajmi (barcha muhim risklarning yig‘ma hajmi hamda har bir muhim risk turi bo‘yicha alohida).

Riskka bardoshlik – muayyan risk yoki faoliyat turi bo‘yicha tashkilotning risk appetiti atrofida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan og‘ishlarning maqbul darajasi. U tashkilot tomonidan kundalik faoliyat jarayonida risk darajasi tebranishiga ruxsat etiladigan miqdoriy chegaralar yoki chegaraviy ko‘rsatkichlarni belgilaydi. Riskka bardoshlik tashkilotning

umumiy risk appetitini operatsion va taktik darajalarda qarorlar qabul qilishni yo'naltiruvchi aniq o'lchanadigan limitlarga aylantiradi.

Stress-test o'tkazish – og'ir, biroq ehtimoliy salbiy iqtisodiy ssenariylar sharoitida Kompaniyaning barqarorligini baholashga qaratilgan istiqbolga yo'naltirilgan tahliliy usul.

II. Risklarni boshqarish qo'mitasining funksiyalari

5. RBQning funksiyalariga quyidagilar kiradi:

Kompaniyaning risklari hamda risklarni kamaytirish bo'yicha ko'rilayotgan choralarni Ijroiya organi bilan muhokama qilish;

Risklarni boshqarish bo'limi (RBB) boshlig'i va Ijroiya organi tomonidan Kompaniyaning Risklarni boshqarish strategiyasi, risk-appetit va riskka bardoshlilik limitlarini belgilash bo'yicha kiritilgan takliflarni ko'rib chiqish hamda ular yuzasidan Kuzatuv kengashiga tavsiyalar taqdim etish;

risklarni boshqarish tizimini davriy risk hisobotlari, asosiy risk indikatorlari (KRI), stress-test natijalari hamda ichki va tashqi audit xulosalarini muntazam ko'rib chiqish orqali baholab borish;

RBB Ijroiya organi, Kredit qo'mitasi, Aktiv va passivlarni boshqarish qo'mitasi, Ichki audit xizmati hamda tashqi auditor tomonidan ko'tarilgan muhim risk masalalarini ko'rib chiqish;

RBB tomonidan taqdim etilgan Risklarni boshqarish hisobotlari asosida, kamida har chorakda, Kompaniyaning Risk profili Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan risk-appetit, belgilangan riskka bardoshlilik limitlari hamda risk tendensiyalariga muvofiqligini ko'rib chiqish;

har chorakda Kompaniyadagi joriy risklar darajasi, kredit portfeli, risk konsentratsiyalari hamda risklarni boshqarish bilan bog'liq boshqa muhim masalalarni ko'rib chiqish;

Kompaniyaning risklarni boshqarish siyosatlarini Markaziy bank talablari, boshqa amaldagi normativ hujjatlar hamda Bazel qo'mitasi ilg'or amaliyotlariga muvofiqligini Kompaniya tomonidan taqdim etgan ma'lumotlar asosida ko'rib chiqish;

har chorakda Risklarni boshqarish hisobotlarini, jumladan stress-test natijalarini ko'rib chiqish;

yangi mahsulotlar, xizmatlar va operatsiyalarning Kompaniyaning risk profiliga hamda moliyaviy holatiga ta'sirini ko'rib chiqish;

IMTlarga kredit limitlarini belgilash metodologiyasini hamda kredit limitlarini o'rnatish bo'yicha Risk tahlil hisobotini Kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun kiritilishidan oldin ko'rib chiqish;

risklarni boshqarish masalalari bo'yicha Kuzatuv kengashining boshqa qo'mitalari bilan hamkorlik qilish;

RBB rahbarini tayinlash, lavozimidan ozod etish hamda unga to'lanadigan mukofot (ish haqi va boshqa rag'batlantirishlar) bo'yicha Kuzatuv kengashiga tavsiyalar kiritish;

Kuzatuv kengashi tomonidan RBQ zimmasiga yuklatilgan risklarni boshqarish bilan bog'liq boshqa funksiyalarni bajarish.

III. Risklarni boshqarish qo'mitasining tarkibi va a'zolarini saylash tartibi

6. RBQ kamida uch nafar a'zodan iborat bo'lib, Kuzatuv kengashi a'zolari orasidan

saylanadi. Risklarni boshqarish sohasida tegishli tajriba va malakaga ega bo'lgan Kuzatuv kengashi a'zolarini RBQ a'ziligiga tayinlashga ustuvorlik beriladi. Kuzatuv kengashi raisi RBQ a'ziligiga nomzodlarni tavsiya etadi va mazkur nomzodlar Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

7. RBQ raisi Kuzatuv kengashi raisi tomonidan tavsiya etiladi, hamda Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

8. RBQ tarkibiga bank bo'lmagan kredit tashkilotlari, banklar yoki boshqa moliyaviy tashkilotlarda risklarni boshqarish sohasida amaliy tajribaga ega bo'lgan kamida bitta a'zo kiritiladi. Shuningdek, RBQ a'zolari bank operatsiyalari va moliyaviy tahlil sohasida yetarli bilim va malakaga ega bo'lishi lozim.

IV. Risklarni boshqarish qo'mitasi a'zolarining muddatini tugatish tartibi

9. RBQning barcha yoki alohida a'zolarining vakolatlari quyidagi hollarda muddatidan oldin tugatilishi mumkin:

RBQning har qanday a'zosi, jumladan Qo'mita raisi, vakolatlarini ixtiyoriy ravishda tugatish maqsadida, rejalashtirilgan iste'fo sanasidan kamida 1 (bir) oy oldin Korporativ maslahatchiga yozma ravishda ariza berish huquqiga ega. Mazkur holatda Kuzatuv kengashi ushbu Nizomda belgilangan RBQ a'zolarining minimal soniga rioya qilgan holda, yangi RBQ a'zosini saylash yoki RBQ a'zolari sonini qisqartirish to'g'risida qaror qabul qiladi;

Kuzatuv kengashi istalgan vaqtda RBQning har qanday a'zosi vakolatlarini tugatish, hamda ushbu Nizomda belgilangan RBQ a'zolarining minimal soniga rioya qilgan holda, RBQning yangi tarkibini saylash yoki RBQ a'zolarining umumiy sonini qisqartirish huquqiga ega.

10. RBQning barcha yoki alohida a'zolarining vakolatlarini tugatish Kompaniyaning Kuzatuv kengashi qarori bilan rasmiylashtiriladi.

11. Korporativ maslahatchi RBQ a'zosining vakolatlarini ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risidagi yozma arizasini Kuzatuv kengashi raisi va RBQ raisiga o'z vaqtida taqdim etilishi uchun mas'ul hisoblanadi.

V. Risklarni boshqarish qo'mitasi raisining vazifalari

12. RBQ raisining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

RBQ faoliyatini tashkil etish, RBQ majlislarini chaqirish, hamda ularga raislik qilish;
RBQ majlislarining shakli, sanasi, vaqti, o'tkaziladigan joyi va kun tartibini belgilash;
RBQ majlislarida ishtirok etishga taklif etiladigan shaxslar ro'yxatini aniqlash;

RBQ majlislarida ko'rib chiqilishi rejalashtirilgan masalalarni yanada batafsil o'rganish, hamda tegishli materiallarni tayyorlash zarurati bilan bog'liq topshiriqlarni RBQ a'zolariga yuklash;

RBQ vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Kuzatuv kengashi, Kuzatuv kengashi huzuridagi boshqa qo'mitalar, hamda Ijroiya organi bilan o'zaro hamkorlik qilish.

VI. Risklarni boshqarish qo'mitasi a'zolarining huquq va majburiyatlari

13. RBQning har bir a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

RBQ majlislarida qatnashish, hamda RBQ vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etish;

Kompaniya faoliyatiga taalluqli bo'lgan to'liq va ishonchli axborot hamda hujjatlarni so'rash va olish;

Zarurat tug'ilganda, RBQ vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lgan uchinchi shaxslarni ekspertlar (maslahatchilar) sifatida jalb etishni tavsiya qilish;

Kompaniyada risklarni boshqarish holati bo'yicha batafsil axborot taqdim etish uchun Risklarni boshqarish bo'limi (RBB) boshlig'ini, shuningdek Ijroiya organ a'zolarini, Kompaniya xodimlarini va Kuzatuv kengashi huzuridagi boshqa qo'mitalar a'zolarini RBQ majlislariga taklif etish;

Korporativ maslahatchidan RBQ vakolatiga kiruvchi masalalarni Kuzatuv kengashi majlisi kun tartibiga kiritishni so'rash hamda zarurat tug'ilganda Kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlisini chaqirishni talab qilish;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kompaniya Ustavi hamda Kompaniyaning Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomiga muvofiq boshqa huquqlardan foydalanish.

14. RBQ a'zolari quyidagi majburiyatlarni bajarishi shart:

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kompaniya Ustavi, Kompaniyaning Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomi va ushbu Nizomga muvofiq RBQga yuklatilgan funksiyalarni bajarish;

o'z vakolatlari doirasida Kuzatuv kengashiga asoslantirilgan tavsiyalar taqdim etish;

o'z faoliyatini Kompaniya va uning aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish;

RBQ majlisi kun tartibidagi har bir masala bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq tijorat sirini saqlash;

RBQ qarorlarini qabul qilish jarayonida yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida RBQning boshqa a'zolari va Kuzatuv kengashini xabardor qilish hamda bunday masalalarni muhokama qilish va ovoz berishda ishtirok etmaslik.

VII. Risklarni boshqarish qo'mitasi majlislarini tashkil etish va o'tkazish tartibi

15. RBQ majlislari RBQ raisi tomonidan o'z tashabbusi bilan, shuningdek RBQning boshqa a'zolari, Kuzatuv kengashi, Risklarni boshqarish bo'limi (RBB) boshlig'i yoki Ijroiya organi tashabbusi bilan chaqiriladi.

16. RBQ majlislari kamida har chorakda bir marotaba bevosita yoki video/audio konferensiya orqali masofaviy shaklda o'tkaziladi.

17. RBQ majlisida, uning a'zolarining kamida 2/3 qismi ishtirok etsa, majlis vakolatli hisoblanadi, bunda RBQ raisi ishtirok etishi shart.

18. Korporativ maslahatchi yoki Bosh ijrochi direktor tomonidan tegishli funksiyalarni bajarish uchun belgilangan boshqa shaxs RBQning kotibi hisoblanadi. RBQning kotibi RBQ majlislarida kotiblik vazifasini bajaradi.

19. Majlis kotibi RBQ majlisi kun tartibiga kiritilgan masalalarga oid barcha materiallar va hujjatlarni majlis o'tkaziladigan sanadan kamida 5 (besh) ish kuni oldin RBQ a'zolariga yuboradi.

20. RBQ qarorlari majlisda ishtirok etayotgan RBQ a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi

bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng kelgan taqdirda, RBQ raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. RBQ qo'mitasining qaroriga rozilik bildirmagan RBQ a'zosi o'zining majburiy tartibda majlis bayonnomasiga ilova qilinadigan alohida fikrini qayd etib qo'yish va uni Kuzatuv kengashi e'tiboriga havola qilish huquqiga ega.

21. RBQ qarorlari RBQ majlisi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomamajlisda ishtirok etgan RBQ raisi, RBQ a'zolari hamda majlis kotibi tomonidan imzolanadi.

22. RBQ majlisi bayonnomasi majlis kotibi tomonidan tayyorlanadi va uning to'g'riligi Risklarni boshqarish bo'limi (RBB) boshlig'i tomonidan tekshiriladi.

23. Majlis bayonnomasi majlis o'tkazilgan sanadan keyin kamida 5 (besh) ish kuni ichida barcha RBQ a'zolariga yuboriladi.

24. RBQ majlisi bayonnomasida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi shart:
Kompaniyaning to'liq yuridik nomi va ro'yxatdan o'tgan manzili;
majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy (barcha hollarda Kompaniyaning ro'yxatdan o'tgan manzili majlis o'tkazilgan joy sifatida e'tirof etiladi);
majlis o'tkazish shakli (bevosita, masofaviy yoki sirtqi ovoz berish);
majlis ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlar;
majlisda bo'lib o'tgan muhokamalar mazmunining qisqacha bayoni;
ovozga qo'yilgan masalalar, har bir masala bo'yicha qarorlar matni va ovoz berish natijalari, shu jumladan har bir RBQ a'zosining ovozi;
qabul qilingan qarorlar;
bayonnomani imzolagan shaxslarning lavozimlari va to'liq ismlari (RBQ raisi, RBQ a'zolari va majlis kotibi).

25. Bayonnomamajlisda ishtirok etgan barcha RBQ a'zolari tomonidan, shu jumladan elektron (raqamli) imzo orqali imzolanadi.

26. Bayonnomayoki uning tegishli ko'chirmalari qabul qilingan qarorlarni ijro etish uchun imzolangan kunda Ijroiya organ va tegishli mansabdor shaxslarga taqdim etiladi.

27. Korporativ maslahatchi RBQ yig'ilishlari bayonnomalarini kamida 3 (uch) yil davomida saqlaydi va undan so'ng ular doimiy saqlash uchun arxivga topshiriladi.

VIII. Hisobdorlik

28. RBQ Kompaniyaning moliyaviy holatiga yoki faoliyatining umumiy ahvoriga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim risk masalalari to'g'risida Kuzatuv kengashining o'z vaqtida xabardor bo'lishini ta'minlaydi.

29. RBQ Kuzatuv kengashiga muntazam ravishda, jumladan o'z faoliyati, aniqlangan holatlar va berilgan tavsiyalar, shuningdek Kuzatuv kengashi tomonidan vaqti-vaqti bilan so'ralishi mumkin bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan hisobot beradi. Kuzatuv kengashiga taqdim etiladigan hisobotlar RBQ raisi yoki RBQ tomonidan mazkur hisobotlarni taqdim etish uchun vakolat berilgan boshqa RBQ a'zosi tomonidan og'zaki shaklda ham taqdim etilishi mumkin.

30. RBQ o'z faoliyati natijalari bo'yicha yillik hisobotni RBB yordamida tayyorlaydi va Kompaniyaning Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 45 (qirq besh) kun oldin uni Kuzatuv kengashiga taqdim etadi. RBQning yillik hisoboti RBQ faoliyat yuritgan davr uchun ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va unda quyidagi ma'lumotlar aks ettirilishi lozim:

o'tkazilgan majlislar soni va ko'rib chiqilgan masalalar ro'yxati;

RBQ ish rejasining ijrosi.

31. RBQning Kuzatuv kengashiga taqdim etiladigan Yillik hisoboti RBQ raisi va RBQ kotibi tomonidan imzolanadi.

IX. Yakuniy qoidalar

32. Ushbu Nizom Kuzatuv kengashi majlisida tasdiqlanadi, hamda tasdiqlangan sanadan e'tiboran kuchga kiradi va u bekor qilinguniga qadar (yangi Nizom qabul qilingunga qadar) amal qiladi.

33. Ushbu Nizomga rioya etish RBQ a'zolari, Kompaniyaning Bosh ijrochi direktori va Bosh ijrochi direktor o'rinbosarlari, Risklarni boshqarish bo'limi (RBB) boshlig'i, shuningdek Kompaniyaning barcha tegishli tarkibiy bo'linmalari boshliqlari va xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

34. Ushbu Nizomga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi shart.

35. Mazkur Nizom tasdiqlanishi munosabati bilan Kuzatuv kengashining 2020-yil 3-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati Risklarni boshqarish qo'mitasi to'g'risida"gi Nizom o'z kuchini yo'qotadi.